



## REAL IQTISODIYOT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI PASAYTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBLARI

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*Real iqtisodiyot kafedrasи professori,*

*i.f.d. Kuvandikov Shukhrat Oblokovich*

*MI -121 gurux magistri*

*Xolmirzaeva Gulrux Akbarovna*

Real iqtisodiyot korxonalari, ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiyotning rivojlanishi va uning samaradorligini baholovchi mezonlar, parametrlar, indikatorlar va ko‘rsatkichlar keng yoritilgan. Shuningdek, mazkur bu muammo yechimiga qaratilgan jahoning nufuzli tashkilotlarining bir qator nizomlari, ko‘rsatmalari va ishlanmalari ham mavjud. Hozirgi kunga qadar ushbu tashkilotlar tomonidan har bir davlatning iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanishining yo‘nalishlari bo‘yicha qator indikatorlar va reytinglar ishlab chiqilgan bo‘lib, bularning barchasi jahon statistika tizimi standartida o‘z aksini topgan.

Avvalambor, mezon va ko‘rsatkich tushunchalarining mazmun-mohiyatini va ularning bir-biridan farqli jihatlarini aniqlashtiradigan bo‘lsak, mezon – bu iqtisodiy adabiyot va lug‘atlarda ifodalanganidek, asosiy vosita hisoblanib, u yoki bu iqtisodiy va boshqa jarayonlarning rivojlanishi, o‘zgarishi va dinamikasini aniqlovchi kuchdir [3].

Ko‘rsatkich esa shunday holatga mos bo‘lib, ishlab chiqarish yoki korxonaning barcha faoliyati jarayonlarini o‘rganuvchi va tahlil qiluvchi vositasidir. Iqtisodiy adabiyotlarda mezon va ko‘rsatkich har xil ma’no va yo‘nalishda ifodalangan.

Bu borada mualliflar turli guruhlarga bo‘linganlar. Masalan, 1) Bir mezon, bir ko‘rsatkich; 2) Bir mezon, ko‘p ko‘rsatkich; 3) Ko‘p mezon, ko‘p ko‘rsatkich. Aslida olganda bunday yondashuvlarni o‘z o‘rni bor, bularni hamma guruhi ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazardan to‘g‘ri bilish mumkin. Ammo korxona darajasiga kelganda, ularni o‘ziga yarasha korxonalarini xususiyatlaridan kelib chiqgan holdagi o‘ziga xosligi mavjuddir. Real iqtisodiyot korxonalari yuqorida ta’kidlanganidek samaradorlik tushunchasi ham turlicha bo‘lganidek, ularning o‘zlariga xos mezon va ko‘rsatkichlari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish samaradorligi va ijtimoiy samaradorlik turli guruhlarga mos kelishi mumkin emas. Bundan tashqari samaradorlik eng ko‘p 282 uchraydigan umumiy tushunchalardan biri bo‘lib, ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning turli sohalarida keng foydalaniadi.

Masalan, ishlab chiqarish samaradorligi, resurs samaradorligi, innovatsiya samaradorligi boshqarish samaradorligi, ijtimoiy samaradorlik va hakozalar. Ishlab




chiqarishda samaradorlikning alohida o'rni mavjud. Sababi bunda asosiy maqsad mahsulot birligiga kam resurs sarflab pirovardida ko'p natija olishdir. Ushbu ibora samaradorlikning asosiy konsepsiyasiga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, resurslar samaradorligi ishlab chiqarishda asosiy samaradorlik hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslarni o'z navbatida 5 ta turga bo'lish mumkin:

- 1) moddiy resurslar;
- 2) mehnat resurslari;
- 3) moliyaviy resurslar;
- 4) energiya resurslari;
- 5) axborot resurslari.

Ushbu resurslardan oqilona foydalanim sanoat ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish yo'naliшlarini ishlab chiqish mumkin. Real iqtisodiyot korxonalarida nazariy jihatdan samaradorlikni boshqarishni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqqan holda samaradorlikning belgilari va turlarini bir tizimga keltirib tasniflashni ishlab chiqish samaradorlik nazariyasi uchun zarur holat hisoblanadi.

Real iqtisodiyot korxonalari olib borilgan o'rganishlar va tahlillar asosida, samaradorlikni belgilari va turlari bo'yicha tasniflashni quyidagi ko'rinishda bayon etish mumkin.



## 2-rasm. Boshqarish samaradorligining belgilari va turlariga ko'ra tasnifi

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, real iqtisodiyot korxonalari bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini baholash, uning nazariyasini tadqiq etish, ayniqsa O'zbekiston misolida keng ko'lamda tadqiqotlarni amalga oshirish talab darajasida emas. Buning asosiy sababi, bizning fikrimizga ko'ra

vazirliliklar, kompaniyalar, ishlab chiqarish korxonlari, bozordagi konyunkturaga, talab va taklif ko'rsatkichlariga asoslangan holda boshqarishning asosiy tamoyili bo'lgan samaradorlikka yetarlicha e'tibor berishmayapti. Fikrimizcha bunga asosiy sabab haliyam bozor mexanizmi elementlarining yetarli darajada ishlamayotganligi, sof raqobatchilik muhitining to'liq shakllanmaganligidir.

Ishlab chiqarishda samaradorlikning asosan ichki turidan foydalanadilar: iqtisodiy va ijtimoiy.

Real iqtisodiyot korxonalari ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladigan va mehnat xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan natijalarni iqtisodiy va ma'lum ma'noda ijtimoiy samara deb ham tushunish mumkin.

Real iqtisodiyot korxonalari iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko'rsatib, korxona ichida va tashqaridagi ijtimoiy rivojlanshga ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish – boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va boshqalarning natijasi. Iqtisodiy samara material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash sababli erishilgan miqdor. U vaqtincha tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash, ish vaqtini zoya ketkazmaslik, mablag'lar aylanmasini tezlashtirish, boshqaruvda ish sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi. Demak, ushbu samaralar ishlab chiqarishning o'zida paydo bo'layotgani, ular birlashib amalga oshirilayotgan jami mehnatni ifodalasa buni ijtimoiy – iqtisodiy samara deb ifodalash mumkin. Iqtisodiy samaradorlikni boshqarish mazmun – mohiyati uning mezon va ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir.

### 1-jadval

#### Real iqtisodiyot korxonalarining iqtisodiyot darajalariga mos keluvchi mezon va ko'rsatkichlari

Iqtisodiyot darjasи	Mezon	Ko'rsatkichlari
1. Jahon iqtisodiyoti	YAIM	YAMM, real daromad, resurslar hajmi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot bozor konyunkturasi
2. Mintaqaviy iqtisodiyot	YAIM	YAMM, real daromad jon boshiga to'g'ri keladigan daromad. investitsiya hajmi, innovatsiya rivoji aholi bandligi
3. Makro iqtisodiyot (davlat)	YAIM	Mehnat umumdarajasiga real daromad investitsiya kiritilishi. Aholi bandligi o'rtacha ish haqi innovatsiya rivoji
4. Mikro – iqtisodiyot (tarmoq, korxona)	Samaradorlik	Mahsulot hajmi, tannarx, mehnat unumдорлиги, foyda, rentabellik, asosiy fondlar qiymati, aylanma mablag'lar qiymati, fond qiymat krediti, o'rtacha ish haqi
5. Kichik firma iqtisodiyoti	Foyda	Mahsulot haqi, tannarx, rentabellik, mehnat unumдорлиги, o'rtacha ish haqi, eksport

Umuman olganda, Real iqtisodiyot korxonalari iqtisodiyot darajasiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

1. Jahon iqtisodiyoti – mega daraja.
2. Mintqa iqtisodiyoti – mezo daraja.
3. Mamlakat iqtisodiyoti – makro daraja.
4. Tarmoq, korxona iqtisodiyoti – mikro daraja
5. Kichik firma iqtisodiyoti – nano daraja.

Ushbu iqtisodiyot turlari va darajalaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos va mos mezon hamda ko‘rsatkichlar belgilanishi maqsadga muvofiq. Iqtisodiy adabiyotlarda mezon va ko‘rsatkichlarni aniqlash borasida xorijiy va amahalliy olimlarimiz tomonidan yondashuvlarning turlichaligi alohida ta’kidlagan holda bu borada o‘z yondashuvimizni izohlashga harakat qilamiz.

Masalan, 5 ta iqtisodiyot darajalariga qarab mezon va ko‘rsatkichlarga nisbatan iqtisodiy adabiyotlarda mezon va ko‘rsatkichlarning har xil ma’no va yo‘nalishda ifodalanganligini va ularning asosan uchta guruhga bo‘lib o‘rganilishini e’tiborga olgan holda, mazkur guruhlarga nisbatan aynan aksariyat olimlar ko‘p mezonli va ko‘p ko‘rsatkichlar guruhi tarafдорлари ekanliklarini alohida ta’kidlash mumkin. Ular iqtisodiy ko‘rsatkichlarni umumiy va xususiylargaga bo‘lib, umumiylarini mezon qilib belgilamoqda.

Bizning fikrimizcha esa, bunday yondashuv bugungi jahon iqtisodiyotining globallashuvi nuqtai nazardan to‘g‘ri kelmaydi. Shu sababdan, biz iqtisodiyotni darajalariga qarab bir mezon va ko‘p ko‘rsatkichlar guruhi tarafдоримиз. Mazkur yondashuvning mazmun – mohiyati 1-jadvalda ko‘rsatilgan. Ayrim tadqiqotlarda, ayniqla rossiyalik olimlar mehnat unumdoorligini mezon sifatida o‘rganishgan. Ular bu g‘oyani asoslash uchun jonli va buyumlashgan mehnatni tejash natijasida erishish mumkin degan xulosaga kelganlar.

O‘z o‘rnida bu fikr to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, ammo bunday yondashuv asosan ma’muriy-boshqaruvgaga asoslangan rejali iqtisodiyotga xosdir. Shu sababli bu g‘oyaga qo‘shilmagan holda, bu jarayonda faqat jonli mehnat samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiqli deb o‘ylaymiz. Demak, mehnat unumdoorligini mezon sifatida foydalanish mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish real iqtisodiyot korxonalarini samaradorligini baholashda muhim o‘rin egallaydi.

Ammo bu ko‘rsatkichlar asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi o‘zgarishiga aniq baho berish ancha qiyin, sababi ular o‘zgarishining tendensiyasi va dinamikasini taqqoslash murakkab masaladir. Shunday qilib, qurilish materiallari korxonalarining ishlab chiqarishda iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni rivojlantirish uchun quyidagi dolzarb masalalarni hal etish taklif etiladi:

Real iqtisodiyot korxonalari kelajakda raqobatbardoshlikni oshirish uchun ishlab chiqarishda asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash va yuqori texnologiyali jixozlarni joriy etish;

- innovatsiya va fan – texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik darajasini ko‘tarish, fan – texnika yutuqlarini joriy etishni kuchaytirish;

- inson omilini kuchaytirish asosida xodimlarning ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rivojlantirish;

- raqobatbardoshlikni oshirish, raqobatga chidamli bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ichki va tashqi bozorda o‘z o‘rnini saqlash va mustahkamlashni ta’minlash.

- mahsulot tannarxiga ta’sir etuvchi yuqori materialli va energiya sig‘imli mahsulotni ishlab chiqarishni bartaraf etish va yuqori qo‘shilgan qiymatlilarni ishlab chiqarish;

- ishchi kuchi va kadrlar salohiyati sifatini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalar va sifat menejmentini yaratish va joriy etish;

- ishlab chiqarishning o‘sish nuqtalarini topish, u asosida o‘zaro bog‘langan va yordamchi qo‘shilgan qiymatli sanoat tarmoqlarini rivojlantirish.

Bu nafaqat mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi, balki sanoatlashtirish miqyosini kengaytirishda sinergetika samarasini beradi;

- kichik va katta korxonalar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish asosida innovatsiya sohasidagi yangiliklarni hisobga olgan holda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni kafolatlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mardiyevna, S. G., & Farxodovna, M. R. (2023). Small Service Business Trends. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 2(5), 123-130.
2. Mardiyevna, S. G., & Ugli, Y. S. N. (2023). Development of Entrepreneurship Organizing Enterprise Activity Through. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 564-571.
3. Mardiyevna, S. G., & Panjiyevich, K. S. (2023). Economic Fundamentals of the Development of Services. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 600-607.
4. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
5. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.

6. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
7. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
8. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
9. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
10. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
11. Nodirovna, M. S. (2023). Developing Rural Services and Increasing the Living Standards of the Population in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 653-661.
12. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
13. Abdukhilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
14. Abdukhilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
15. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
16. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
17. Mardievna, S. G., & Shukhatovna, M. S. (2021). Ways to increase investment potential in samarkand region. *Academica Globe: Inderscience Research*, 2(11), 44-50.
18. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.

19. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида кўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.
20. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
21. Shadiyeva, G., & Kholmirzaeva, G. (2022). FAMILY BUSINESS AND ITS DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 148-151.
22. Shadieva, G., & Saidmurodov, F. (2022). DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS COMPETITIVENESS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 115-124.
23. Шадиева, Г. М., & Кувандиков, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
24. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANQAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
25. Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
26. Shadieva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF" FAMILY ECONOMY". *Confrencea*, 1(1), 239-243.
27. Шадиева, Г. М., & Садинова, Б. Б. (2022). Мамлакатимизда тадбиркорликни ривожлантириш йўллари.
28. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). SYNERGETICS AND ITS ROLE IN SOLVING PROBLEMS OF FAMILY BUSINESS. *British View*, 8(1).
29. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
30. Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и образование*, (5), 381-384.
31. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).

32. Шадиева, Г. М. (2022). ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ. Архив научных исследований, 2(1).
33. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. British View, 7(4).
34. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айrim назарий жиҳатлари. Экономика и образование, (1), 121-126.
35. Shadieva, G. M., & o‘g‘li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 957-962.
36. Mardiyevna, S. G., & Ugli, A. U. A. (2023). PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN RURAL AREAS IN THE DIGITAL ECONOMY. Research Focus, 2(1), 7-10.
37. Pardaeva, O. M., & Shodieva, G. M. (2020). The role of family entrepreneurs in society
38. development. American Journal of Economics and Business Management, 3(5), 194-200.
39. Шадиева, Г. (2021). ОИЛА ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. Экономика и образование, (1), 121-126.
40. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(3), 169-179.
41. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида кўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector, 278.